

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK- PEDAGOGIKA INSTITUTI

KASB TA'LIMI FAKULTETI

Kasb ta'limi (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish)

kafedrasi

34-KTKXM-13 gurux talabasi

ORTIQOV FARXODNING

**BITIRUV MALAKAVIY  
IShI**

Mavzu: **KXK LARDA “KULTIVATOR VA UNING ISHCHI QISMLARI ”  
MAQVZUSINI KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB  
O'QITISH USLUBINI ISHLAB CHIQISH**

NAMANGAN 2017 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN MUHANDISLIK - PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**KASB TA'LIMI FAKULTETI**

Kasb ta'lumi fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_ prof. B.Maxmudov  
«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 yil

Himoyaga ruxsat etilsin:  
Kasb ta'lumi (Qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalashtirish) kafedrasi mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. B.Turdaliyev  
«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 yil

*Bakalavr darajasini olish uchun*

**D I P L O M   L O Y I H A S I**

**Mavzu: KXK LARDA “KULTIVATOR VA UNING ISHCHI QISMLARI ”  
MAQVZUSINI KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB  
O'QITISH USLUBINI ISHLAB CHIQISH**

**Diplom loyihasini bajardi:**  
5111000-Kasb ta'lumi (Qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalashtirish) yo'nalishining  
4 kurs talabasi

\_\_\_\_\_ *F.Ortiqov*

**Diplom loyihasi rahbari:** \_\_\_\_\_ *dots. A.Nasritdinov*

**Maslahatchi:** \_\_\_\_\_ *dots. A.Nasritdinov*

Namangan–2017 yil

# Mundarija

Kirish	5
<b>1. Umumiy qism</b>	6
1.1 Yorkatay agrosanoat kasb-xunar kolleji tavsifi	6
1.2 Malaka tavsifi	7
1.3 Bitiruv malaka ishini asoslash	7
<b>2 Texnologik qism</b>	9
2.1 Kultivator turlari va ularga qo`yiladigan agrotexnik talablar	9
2.2 Ishchi qismlari va ularni maxalliy sharoitga qarab ishlatish	9
2.3 Qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorning tuzilishi	10
2.4 Qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorning sozlanishi	11
<b>3 Metodik qism.</b>	14
3.1 Dars rejasি	14
3.2 Darsda tutilgan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlar	14
3.3 O’quv natijalari.	14
3.4 Darsning jixozlanishi	16
3.5 Mavzuni o’rganish uchun asosiy va qo’shimcha adabiyotlar	16
3.6 Mavzuning strukturali-mantiqiy sxemasi	17
3.7 Darsning tashkil qilish	17
3.8 Mavzuni o’qitish metodlari va ularni taxlili	20
3.9 Ko’rgazmali va didaktik materiallar	23
3.10 Kultivatъr va uning ishchi xismlari mavzusini keys-stadi texnъlygiyasiidan fъydalanib т’qitish uslubini ishlab chiqish	24
<b>4 Xayot faoliyati xavfsizligi</b>	27
<b>5 Malakaviy ishning samaradorligi.</b>	28
<b>Xulosa</b>	30
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati</b>	31

## **Referat**

Bitiruv malaka ishi.....varaq tushuntiruv yozuvi va 5 varaq chizma qismidan iborat. Tushintiruv yozuvi umumiy, texnologik, tashkiliy, mexnat muxofazasi iqtisodiy qismlar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Grafik qismi \_\_\_ta chizmadan iborat bo'lib, xar bir chizma talab darajasida chizilgan.

Bitiruv malaka ishini umumiy qismida kasb-xunar kolleji tavsifi, malaka tavsifi va bitiruv malaka ishini asoslash materiallari berilgan.

Texnologik qismda kultivator va uning ishchiq tuzilishi, texnologik ish jarayoni sxemasi, qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorlarga qo'yiladigan agrotexnik talablar va qismlarining vazifasi keltirilgan.

Metodik qismda fan va mavzuning tavsifi, fanlararo bog'lanishlar, mavzuning uslubiy va texnik ta'minoti, dars materiali xamda an'anaviy dars o'tishning qiqacha bayoni va ularning zamonaviy usullar bilan qiyoslash, dars rejasi, dars maqsadlari, o'quv natijalari, darsning jixozlanishi, darsni tashkil qilish, mavzuning o'qitish metodlari va ularni taxlili, ko'rgazmali va didaktik materiallari xamda "Kultivator va uning ishchi qismlari" mavzusini Keys stadi texnologiyasidan foydalanib o'qitish uslubini ishlab chiqish xaqida ma'lumotlar berilgan.

Xayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha "Kultivator va uning ishchi qismlari bilan ishslash jarayonida xavfsizlikni ta'minlash chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Malakaviy ishning samaradorligida darsning ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitulganda uning an'anaviy darsga nisbatan samaradorligi taxlil qilindi.

## Kirish

Mamlakatimizda ta’lim soxasidagi keng ko’lamli isloxtlarni amalga oshirilishi “Ta’lim to’g’risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning sifat bosqichini ta’minlashda Oliy va o’rta maxsus, kasb - xunar ta’limini rivojlantirishga alovida e’tibor berilgan. Bu soxani rivojlantirish uchun esa yangicha fikrlaydigan, o’qitishning zamonaviy metod, shakl va usullaridan samarali foydalana oladigan yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat./1,2/

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan Fanlar akademiyasi akademiklari bilan uchrashuvida xamda mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisida ilm-fanni rivojlantirishga atroflicha to’xtalib o’tildi.Uning asosiy yo’nalishlari belgilab berildi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun ta’lim jarayoniga yangi axborot- kommunikastiya va pedagogik texnologiyalarni elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz kasb – xunar kollejlari, listeylari va Oliy o’quv yurtlarida o’qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta’lim muassasalarining o’quv laboratoriya bazasini zamonaviy turdagи o’quv va laboratoriya uskunalari, komp’yuter texnikasi bilan etarli darajada ta’minlash zarur. Bu esa muxandis-pedagoglarda mutaxassislik fanlarini ilg’or – pedagogik texnologiyalar asosida o’qitish, dars berish amaliy ko’nikmalarini xosil qilishga yordam beradi. /3/

Yurtimizda xozirgi zamon talablariga xar tomonlama javob beradigan etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash, yosh talabalarni vatanga muxabbat tuyg’usi ruxida, milliy g’urur va milliy iftixorni o’ziga singdirgan, vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo’lida fidokor bo’lgan, o’zini mutaxassisligini chuqur bilgan o’z fikrini tran ifodalay oladigan barkamol insonni tarbiyalash olyi o’quv yurtining eng dolzarb vazifasidir.

**Malakaviy ishi mavzusining dolzarbliги.** Xozirgi paytda KXK lari talabalarini malakali mutaxassis etib tayyorlash va ularni kasb – xunarga yo’naltirishda zamonaviy o’qitish metodining axamiyati benixoya kattadir. «Qishloq xo’jaligi mashinalari» fanidan “Kultivator va uning ishchi qismlari” mavzusini keys stadi texnologiyasidan foydalanim o’qitishni amalga oshirish xozirgacha ishlab chiqilmagan. Ushbu mavzuni interfaol metodlardan foydalanim o’qitishni dolzarbliги shundan iboratki, xozirgi kunda kollej o’quvchilari uchun mutaxassislik fanlari bo’yicha etarli darajada ilg’or pedagogik texnologiya usullari mavzuda keng yoritilmaganligidir. Bundan tashqari O’zbekistonda ishlab chiqilgan va chet ellardan kirib kelayotgan yangi, zamonaviy qishloq xo’jaligi mashinalarining tuzilishi, turlari, vazifalari bo’yicha adabiyotlar mavjud ammo ushbu adabiyotlar xamma kollejlarda xam etarli emas.

Shularni xisobga olib ushbu vazifani amalga oshirish uchun mavzuni yangi materiallar bilan boyitish xamda keys stadi texnologiyasini qo’llash dolzarb masala xisoblanadi.

**Mavzuning ob’ekti.** Kultivator va uning ishchi qismlari .

**Bitiruv malakaviy ishini maqsadi.** KXK larda kultivator va uning ishchi qismlari mavzusini keys stadi texnologiyasidan foydalanim o’qitish uslubini ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Qator oralariga ishlov beruvchi kultivator va uning ishchi qismlarini tuzilishi, ishlashi, qismlari, texnologik ish jarayoni sxemasi, vazifasi keltirilgan va ular asosida mavzuni keys stadi texnologiyasi asosida o’qitish uslubini ishlab chiqildi.

**Amaliy axamiyati.** Qator oralariga ishlov beruvchi kultivator va uning ishchi qismlarini tuzilishi, ishlashi xamda ularning qismlarini joylashish sxemalarini o’rganishda keys stadi texnologiyasidan foydalanish natijasida talabalarni mustaqil fikrlash qobiliyati oshadi xamda mavzuni mukammal o’zlashtirish xolatlari kuzatiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi.** Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi, kirish, umumiy qism, texnologik qism, metodik qism, malakaviy ishning samaradorligi, xayot faoliyati xavfsizligi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Ishning mazmuni ..... bet ..... jadval, rasm va adabiyotlar ro’yxatini o’z ichiga oladi.

## **1. Umumiy qism**

### **1.1. Yorkatay agrosanoat kasb-xunar kolleji tavsifi**

Yorkatay agrosanoat kasb-xunar kolleji O'rta maxsus kasb - xunar ta'lifi markazining 2006-yildagi 167- sonli buyrug'i asosida tashkil topgan bo'lib 540 o'ringa ega. Kolejning umumiy er maydoni 4 ga o'quv binosi 2 ta bo'lib 1106 nafar o'quvchi kasb – xunar o'rganmoqda. Kollejda 32 nafar umum'talim fani o'qituvchisi, 11 nafar ishlab chiqarish ta'lif ustalari, 17 nafar pedagog – muxandis ta'lif tarbiya berib kasb – xunar o'rgatmoqda. Kollej maxalliy byudjet xisobidan jixozlangan.

Kollejda 7 ta yo'naliш bo'yicha quyidagi kasblar beriladi.

- Qishloq xo'jaligi mashina va jixozlarini ishlatish, texnik xizmat ko'rsatish

Kasblari: Qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish va ta'mirlash, elektrogazpayvandchi, keng profilli traktorchi "V" yoki "VS" toifali xaydovchi

-Tikuv va trikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

Kasblari: Tikuvchilik ishlab chiqarish texnologiyasi, keng assortimentdagи kiyimlar tikuvchisi va bichuvchisi, tikuv jixozlarini sozlovchisi.

-Komp'yuter tarmoqlarini o'rnatish va ishlatish.

Kasblari: Texnik dasturchi, komp'yuter va komp'yuter tarmoqlarini ishlatish texnigi

-Elektr tarmoqlari va jixozlarini montaj qilish, sozlash va ishlatish

Kasblari: Elektr montajchi, elektromontyor, elektromexanik, elektr energiya iste'molchilarini nazoratchisi, elektrchilangar.

-O'simlikshunoslik va chorvachilik bo'yicha fermer xo'jaligini tashkil etish va yuritish.

Kasblari: O'simlikshunos fermer, chorvador fermer, laborant assimenator, keng profilli traktorchi "V" yoki "VS" toifali xaydovchi.

-Moliya.

Kasblari: Korxonalar moliyachisi, moliyachi iqtisodchi, moliya bozorlari mutaxassisi.

-Buxgalteriya xisobi

Kasblari: Buxgalter, buxgalter iqtisodchi, dasturchi buxgalter.

Kollejda jami 21 ta to'garak mavjud bo'lib ularda 438 nafar o'quvchilar shug'ullanadi.

O'tgan 2010 yilda kollejni 224 nafar bitiruvchilar muvoffaqiyatli tamomladilar. Ularni 208 nafari tumandagi turli tashkilot, korxonalar, fermer xo'jaliklariga ishga joylashdilar. Qolgan 16 nafar talabandan 3 nafari kasb- xunar kollejimizga ishga qabul qilindi. 13 nafari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun xujjatlar topshirishdi.

O'quvchilar amaliyotlarni xususiy firmalarda, fermer xo'jaliklarida muqobil mashina – traktor parklarida tuman gaz ta'minoti xamda elektr tarmoqlarida olib borishadi.

Kasb-xunar kolleji davlat standartlari doirasida o'rta maxsus kasb-xunar bilimini beradigan o'quvchilarning kasb-xunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqr rivojlantirishni tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan yangi turdag'i o'quv yurtidir.

Ta'lif shakli kunduzgi. Kasb-xunar kolleji bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan nusxadagi diplom beriladi, unda o'rta maxsus kasb ta'lifi yo'naliшlari va mutaxassisliklarini klassifikatori tasniflashni muvofiq mutaxassislik bo'yicha berilgan malaka ko'rsatiladi.

Kasb-xunar kollejida o'qish muddati 3 yil mutaxassisliklar o'rta maxsus kasb-xunar ta'lifi yo'naliшlari va mutaxassisliklari klassifikatorlari asosida tayyorlanadi.

Bitiruv malakaviy ishi amaliyoti Yorkatay Agrosanoat KXK da bajarildi. Amaliyot davrida BMI ga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlar olindi.

## **1.2 Malaka tavsifi**

Mamlakatimizda ta’lim tizimini islox qilish uni yanada rivojlantirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida tayyorlanayotgan mutaxassislar zamon talablariga mos bo’lishi bugungi kunning talabidir. Qishloq xo’jaligini mexanizastiyalash ta’lim yo’nalishi bo’yicha kasb-xunar kolejlarida kichik mutaxasisliklarni tayyorlash muxim axamiyatga egadir.

Respublikamizdagi kasb-xunar kolejlarida qishloq xo’jaligi mashina va jixozlarini ishlatish va texnik xizmat ko’rsatish mutaxassisligi bo’yicha quyidagi kasblar bo’yicha kichik mutaxassislar tayyorlanadi:

- qishloq xo’jalik texnikasini ta’mirlash chilangari
- elektrogazpayvandchi
- keng profilli traktorchi
- “V” yoki “VS” toifali xaydovchi

Standartda belgilangan zarur va etarli mazmuni, kasbiy ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli o’zlashtirgan shaxslarga kichik mutaxassis malakasi beriladi.

Kasbiy ta’limni chuqurlashtirish maqsadida kadrlar malakasini oshirish tizimida, tarmoq o’quv muassasalarida va maxsus kurslarda keyinchalik malakanı oshirish amalga oshiriladi.

Oliy o’quv yurtlarida kasbiy faoliyatni mazkur soxasida yanada yuqoriqoq malakaga erishiladi.

Ushbu tayyorlov yo’nalishlari bo’yicha kichik mutaxassisliklar mexnat bozorida O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rtalik maxsus ta’lim vazirligi, o’rtalik maxsus kasb-xunar ta’lim Markazi, Mexnat vazirligi xamda Moliya vazirliklari tomonidan tasdiqlangan «O’rtalik maxsus, kasb-xunar o’quv muassasalarini bitiruvchisining faoliyatini yo’nalishlari egallagan kasblari, lavozimlari tarif razryadlarining oralig’i» me’yoriy xujjat asosida keltirilgan tarif razryadlari bo’yicha ishlashlari mumkin.

## **1.3 Bitiruv malaka ishini asoslash**

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori oliy talim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos xolda kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko’rib chiqish,xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Prezidentimizning ushu qaroridan kelib chiqib biz xam Mustaqillikni 25 yilligiga o’zimizni olgan nazariy bilimlarimizni mustaxkamlash uchun bitiruv malakaviy ishimizni yuqori saviyada bajarishni oldimizga maqsad qilib qo’yidik.

Xozirgi kunda kasb-xunar kollejlarida talbalarga dars mashg’ulotlarni o’tkazish uchun o’quv qurollari va kasbiy fanlardan adabiyotlar ta’minoti talab darajasida emas. Shuning uchun kasb-xunar kollejlarida yaratilayotgan adabiyotlarning yangi avlodni, kasb-xunar kollejlarini ta’lim standartlari talablariga to’la javob berishi lozim bo’lgan adabiyotlar yaratish kerak.

Bundan tashqari respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta’lim isloxoatlari» ni aks ettirish lozim, yaratilayotgan adabiyotlar va o’quv qo’llanmalar nafaqat talabalar auditoriyasi uchun, balki, o’qituvchilar uchun xam mo’ljallangan bo’lishi lozim, ya’ni o’qituvchilar uchun mavzularni va mashg’ulotlarni o’tishda lozim bo’lgan ilg’or uslubiy ko’rsatmalar xam keltirilgan bo’lishi kerak.

«Qishloq xo’jaligini mexanizastiyalash» ta’lim yo’nalishining qishloq xo’jaligi mashina va jixozlarini ishlatish va texnik xizmat ko’rsatish mutaxassisligi bo’yicha qishloq xo’jaligi mashinalarini ishlatish va ta’mirlash, elektrogazpayvandchi keng profilli traktorchi «V» va «VS» toifali xaydovchilar tayyorlashda «Qishloq xo’jaligi mashinalari» fani kasbiy fanlardan biri xisoblanib, kasbiy ko’nikmalar va bilimlarni shakllantirishda muxim axamiyat kasb etadi.

Xozirgi kunda o’zbek tilida «Qishloq xo’jaligi mashinalari» fani bo’yicha M. Shoumarova tomonidan ishlab chiqarilgan kitob mavjud bo’lib, bu adabiyotda qishloq xo’jaligi mashinalarining tuzilishi, ishslash prinstipi, texnologik ish jarayoni keltirilgan.

Kasb-xunar kollejlarida kasbiy fanlardan ta’lim beruvchi o’qituvchilarni xam malakasi talab darajasida deb bo’lmaydi. Kasb-xunar kollejlaridagi bu muammolarni echish maqsadida tayanch oliy o’quv yurtlari qoshida o’qituvchilarni malakasini oshirish kurslari va bo’limlari tashkil etildi. Bunday

bo'limlarni tashkil etish kadrlar tayyorlash Milliy dasturini sifat bosqichini vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan muxim qadamlardan biridir.

Kasb-xunar kollejlarining pedagoglari ta'lim standartlari, o'quv rejalarini va fanning namunaviy dasturi asosida fanning xar bir mavzusiga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarini aniq maqsadlar asosida rejalash malakasiga ega bo'lishi lozim.

Xar bir fanni namunaviy va ishchi dasturlari asosida xar bir mavzuga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarini olib borish jarayonini loyixalamasdan ta'lim jarayonini sifatini oshirishni tasavvur qilish mushkul.

Dars jarayonini loyixalash, ya'ni soddarroq qilib aytganda rejashtirish, bu mavjud adabiyotlar, ilmiy texnik jurnallar va axborotlar, o'quv jixozlari, o'qitish vositalari, ko'rgazmali qurollar yordamida o'quv va ta'lim maqsadlariga erishishni eng samarali yo'llaridan biridir.

Xozirgi kunda dars jarayonini rejashtirishga va loyixalashga bag'ishlangan ko'plab anjumanlar, o'quv kurslari tashkil etilib, ushbu anjumanlar materiallari asosida uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilmoqda va ta'lim jarayonida keng ko'lamda foydalanilmoqda. Jumladan kasbiy va texnika fanlaridan ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalar va adabiyotlarni yaratish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalar ishlab chiqildi. Biroq bunday qo'llanma va ko'rsatmalarda texnik fanlarni o'ziga xos tomonlari etarli darajada ochib berilmagan va xisobga olinmagan.

Ta'lim jarayoni sifatini belgilovchi ana shunday muammolarni xal etish uchun kasbiy fanlarni xar biri bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy fanni o'qitish uslublariga bag'ishlangan adabiyotlarni yaratish va ularni ko'plab nusxalarda chop ettirish ta'lim jarayonida xozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bitiruv malaka ishining asosiy maqsadi «Qishloq xo'jaligi mashinalari» fanidan «Kultivator va uning ishchi qismlari» mavzusini Keys stadi texnologiyasidan foydalanib o'qitish uslubini ishlab chiqish bo'lib, yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda bir kichik qadam bo'lib xisoblanadi deb o'ylaymiz.

«Kultivator va uning ishchi qismlari» mavzusi «Qishloq xo'jaligi mashinalari» faniga tegishlidir. «Qishloq xo'jaligi mashinalari» fani Qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlash va ta'mirlash kasbi bo'yicha chilangar usta, elektrik, «V», «S» toifali xaydovchilar tayyorlashda asosiy kasbiy fanlardan biri bo'lib xisoblanadi. Ushbu fanni o'qish jarayonida talabalar kultivator va uning ishchi qismlarini tuzilishi, ularni vazifasi, ishlashini tegishli materiallar asosida ishlab chiqish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

Bitiruv malaka ishining asosiy maqsadi chilangar usta, elektriklar, «V» toifali xaydovchilar tayyorlashda «Qishloq xo'jaligi mashinalari» fanining axamiyati, tutgan o'rni, vazifasi va maqsadlarini, fanlararo bog'lanishlarini o'rganish. Qishloq xo'jaligi mashinalari fanidan "Kultivator va uning ishchi qismlari" mavzusini Keys stadi texnologiyasidan foydalanib o'qitish uslubini ishlab chiqish, va mavjud adabiyot va qo'llanmalardagi ushbu mavzu materiallарini taxlil qilishdan iborat.

## 2. TEXNOLOGIK QISM

### 2.1. Kultivator turlari va ularga qo`yiladigan agrotexnik talablar.

Tuprok palaxsasini agdarib erga ishlov berish, kupincha, salbiy okibatlarga, ya'ni, uglerodning kamayishi, shamol va suv eroziyasining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tuprokni agdarmasdan yumshatib, tabiiy namlikni saglab kolish, begona utlarga karshi kurashish, ekilgan urugni unib chigishi uchun eng kulay sharoit yaratish kabi maksadlarda erga ishlov berish uchun kultivatorlardan keng foydalilanildi.


Kultivatorlar erga yoppasiga ishlov beradigan va maxsus xamda chopik kiluvchi turlarga bulinadi.

Erga yoppasiga ishlov beradigan turlari ishlov berilmagan joylarni koldirmasdan tuprokni yumshatish va begona utlarni yukotish maksadida ishlatiladi.

Maxsus kultivatorlar bog va urmonlarda daraxtlar oraligiga xamda eroziyaga uchragan joylarga ishlov berishda ishlatiladi. Bu guruxga chugur yumshatkich-keskich kultivatorlari xam kiritiladi.

### 2.2. Ishchi qismlari va ularni maxalliy sharoitga qarab ishlatish

Chopik kultivatori sugoriladigan dexgonchilikda ekinlar kator oraligidagi tuprokka ishlov berish, begona utlarni yukotish va ugitlash uchun ishlatiladi.



1- rasm. Qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorlarning ishchi qismlari.

Yumshatuvchi tishlar iskanasimon (1- v rasm), tuntarma (1- g rasm) va nayzasimon (1- d rasm) kabi turlarga bulinadi. Bunday tish sirtining yumshatish burchagi uzgaruvchan kilinadi (balandligi ortsa, kattalashadi). Iskanasimon tishning kamrov kengligi  $v = 20$  mm bulib, tuprokning pastki, namrok kismini yuzaga chikarmaydi. Bunday tish bikr ustunga  $0 = 40-45^\circ$  ostida urnatilib, 25 sm chugurlikkacha, prujinasimon ustunga  $25-30^\circ$  burchagi ostida kotirilib, 12 sm chukurlikkacha

Kultivator bilan ishlov berishda kuyidagi agrotexnik talablarga: tuproknинг pastki, nam katlamini er yuzasiga chikarmaslik; eroziyani kuchaytiradigan changsimon zarrachalarni xosil kilmaslik; yumshatiladigan chukurlik tayinlanganidan 1,0 sm dan ortik fark kilmasligi va begona utlarni 98...99 % yukotilishiga rioya kilinadi.

Kultivator ishchi kismlari bajaradigan ishiga karab, asosan turt turga bulinadi: yumshatuvchi tishlar, utoglovchi yotig tishlar, ugyoysimon tishlar va chugur yumshatuvchi tishlar.

ishlov berishi mumkin. Tuntarma tish uchining kengayish burchagi  $60\text{--}70^\circ$  bulib, kamrov kengligi  $v = 35\text{--}65$  mm buladi. Ishlatilayotgan uchi utmaslanib kolsa, tish  $180^\circ$  ga tuntarilib urnatiladi. Nayzasimon tish (1- d rasm) kup yillik begona utlarni yukotishda gul keladi.

Utoklovchi yotig tishlar (1- a rasm) ekin kator oraligidagi begona utlarni yukotish maksadida ishlatiladi. Shu sababli, uning yumshatish burchagi uta oz ( $9\text{--}10^\circ$ ) urnatiladi va tuprokni maydalash deyarli kuzatilmaydi. Bunday tishning tigi begona ular ildizini kam kuch sarflab kesishi uchun ? burchagining mikdori sirpanib kesishni ta'minlashi kerak. Shu sababli, utoklovchi yotik tish gamrov kengligi  $v = 85\text{--}165$  mm,  $28\text{...}32^\circ$  kabul kilinadi va a = 4-6 sm chukurliklarda ishlatiladi.

Ukyoysimon (universal) tishlar begona utlarning ildizlarini kesib yukotish va tuprokni etarli darajada yumshatish uchun ishlatiladi. Shu sababli,  $28\text{...}30^\circ$  bulib,  $v = 220\text{...}385$  mm, ishlov berish chukurligiga a = 12 sm gacha etadi.


Chukur yumshatuvchi tish tuprokni 30-40 sm chukurlikkacha yumshatadi. Bunday tish shaklan ukyoysimon bulib, boshmok va unga urnatilgan iskanasimon tumshuk, va ikkita lemexlardan tashkil topgan buladi. Kamrov kengligi 80 sm va undan kup bulishini ta'minlash uchun  $38\text{...}60^\circ$  kabul gilinadi. Iskana  $17\text{...}25^\circ$ , lemex esa  $25^\circ$  burchak ostida gorizontal yunalishga egilgan buladi. Tuprok palaxsasi lemex ta'sirida 10 sm gacha kutarilib, oldingi joyiga tushiriladi, natijada, tuprok agdarilmasdan birmuncha yumshatilib, begona ut ildizlari kesiladi.

### 2.3. Qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorning tuzilishi .

Sukoriladigan ekinni parvarishlashda uning kator oraligidagi tuproqni yumshatish, begona ular ildizini kesib ketish, ugitlash, juyaklar ochish kabi ishlar chopik kultivatori yordamida bajariladi. Katordagisi kuchatlarga zarar keltirmaslik uchun ularga nisbatan kultivator tishlari birinchi kultivatsiyalashda 8-12 sm, keyingilarida 14...15 sm ximoya zonasini koldirilib joylashtiriladi.

Ishchi kismlari. Chopik kultivatorlarida xam erga yoppasiga ishlov beradigan kultivatorning rasmida keltirilgan ishchi kismlari va ugit solgich, rotatsion yulduzcha, juyak olgich, panjarasimon kanothi juyak olgich, oziklantirib juyak olgich, sferik disk va boshkalar ishlatiladi. Xar bir kator oraligidagi tuprokka ketma-ket ishlov berish uchun kerak bulgan ishchi kismlarning majmuasi bitta gryadilga urnatiladi.

Gryadil katorlar oraligining urtasida joylashgan bulib, ishchi kismlar uning unga chap tomonlariga kerakli masofa va chukurlikda urnatiladi. Xar bir ishchi kism ustuni gryadilga tutkich va kulflar yordamida, uning kerakli xolatini ta'minlaydigan kilib maxkamlanadi.



2- rasm. Qator oralariga ishlov beruvchi chopiq kultivatorining tuzilishi.

Utoklovchi va ukyoysimon tishlar begona utlarning ildizini kesib ketish va tuprokni kisman yumshatish uchun ishlatiladi. Ular tigining kalnligi 1,0 mm dan kamroq bulishi kerak. Ish jarayonida uzi utkirlanib turishi va eyilishga chidamli bulishi uchun tigga kattik kotishma (masalan, sormayt) payvandlangan buladi. Bunday tishlarning tuprokni yumshatish darajasi, ularning engashish burchagi boglik bulganligi sababli, ularni ustunga  $12\text{--}18^\circ$  kilib bolt bilan urnatish mumkin.

Sugoriladigan juyakdagi tuprokni yumshatish uchun, kengligi 35 mm li yumshatuvchi tishlar gullaniladi. Kupinchalas, bunday tishlarning dami ikki tomonlama bulib, bir tomoni utmas bulib

golganda, uni  $180^{\circ}$  ga tuntarib, ikkinchi tomoni bilan guyiladi. Bunday tishni ustunga egilish burchagi  $36\text{--}40^{\circ}$  gilib urnatish mumkin.

Katkalokni buzish, tuprognii yumshatish va begona utlarni yukotish va ximoya zonasini kamaytirish maksadida rotatsion yulduzcha ishlatiladi. Ulardan kuchatlarning buyi  $30\text{--}40$  sm ga etgunicha foydalaniladi. Rotatsion yulduzchaning barmoklari  $5\text{--}8$  sm gacha tuprokka botib yuradi. Agar yulduzchani barmoki bukilgan tomonga aylantirilsa, uning ishlov berish chukurligi ortadi. Ugit kumgich erni  $16$  sm chukurlikkacha yumshatib, ugitlaydi. Juyak olgich  $16$  sm chukurlikkacha ishlov berib, begona utlarni yukotib maydalash, tuprokni kutarib kuchatlар tagini kumib ketish uchun ishlatiladi. Juyak olgich kanotining xolatini uzgartirib, tuprokni kutarib kumish balandligi sozlanadi. Oziklantirib juyak olgich, tuprokka  $20$  sm chukurlikkacha ishlov beradi. Sferik disklar ximoya zonasini kamaytirish uchun ishlatiladi.

Chopik kultivatorining kamrov kengligi, ishchi kismlari urnatilgan gryadillar oraligi va soni, urug ekib ketgan seyalkaning ulchamlari bilan moslangan bulishi kerak.

Agrotexnik talablar. Ishlov berish sifati yukori bulishi uchun kultivator dalaga sugorilgan erlardagi tuprok namligi  $16\text{--}18\%$  gacha kamayganidan sung kiritilgani ma'kul. Kultivatorning tishlari nam tuprokni er betiga chikarmasligi kerak. Tuprokni yumshatish chugurligi tayinlanganidan  $(1s2)$  sm dan ortik fark kilmasligi, begona utlar  $98\text{--}99\%$  yukotilishi kerak.

Kuchatlар traktor gildiraklari va gryadildagi ishchi kismlarga tegib shikastlanmasligi uchun ular gilof va tusiklar bilan yopilishi lozim. Kultivator bilan ishlov berganda shikastlangan kuchatlarning mikdori  $1,0\%$  dan oshmasligi kerak. Ish vaktida turli sabablarga kura, gryadilni yon tomonlarga burilishi  $1\text{--}2$  sm dan oshmasligi uchun uni bikr urnatish lozim.

Utoklovchi tish tigining  $0,4\text{--}0,5$  mm dan oshmasligi, oziglantirish uchun solinayotgan ugit migdori va uni kumish chukurligining fargi tayinlanganidan  $10\text{--}15\%$  dan ortik bulmasligi kerak.

Umuman olganda, kultivatordan foydalanishda maxalliy yutuq sharoiti birinchi urinda e'tiborga olinishi lozim.

Chopik kultivatorining tuzilishi . Kultivator kismlari maxsus chopik traktorining oldi (oldingi sektsiyasi) va orga (orga sektsiyasi) tomonlariga urnatiladi.

Kultivatorning oldingi sektsiya ramasi  $3$ , traktorning ung va chap tomonidagi lonjeronlariga urnatiladi. Rama  $3$  ga pasaytirgich  $25$  orgali sektsiyaning turt buginli (parallelogrammli) osish mexanizmi  $4$  biriktirilgan. Ularga, uz navbatida, gryadil  $20$  lar urnatiladi. Gryadillarga ishchi kismlar maxkamlanadi.

Kultivatorga beshta ugitlash apparati  $13$  va  $18$  (ularning ikkitasi oldi, uchtasi — orga sektsiyalarda)lar urnatilgan.

Gidrotsilindr  $14$  ning ta'sirida kutarish vali  $15$  burilib, tortki  $12$  va  $16$  lar orkali ikki elkali richag kutargich  $8$  yordamida jilov  $5$  dagi sirpangich  $9$  ni yugoriga kutaradi. Sirpangich  $9$ , jilov  $5$  ga maxkamlangan shayba  $10$  ga tiralib, uni jilov bilan birgalikda yugoriga kutaradi. Jilov esa gryadil  $20$  ni va unga urnatilgan ishchi kism  $24$  larni yugoriga kutaradi. Gryadilni er yuzasiga nisbatan muayyan balandlikda kutarib yurib, ishlov berish chukurligini me'yorida ushlab turish uchun tayanch gildirakcha  $21$  lar xizmat kiladi.

Ishlov berish chukurligini uzgartirish uchun ishchi kism ustunini gryadilga maxkamlaydigan kulflar echilib, uning gildirakchaga nisbatan balandligi uzgartiriladi.

Tirak  $6$  ning joyini jilov  $5$  buylab uzgartirib, prujina  $7$  ning sikilish darajasini uzgartirish mumkin. Prujinaning sikilish kuchi jilov orgali gryadilga, unga urnatilgan kismlarga uzatilib, ularni tuprokka botirishga va tuproknning karshilik kuchi (zichroq erlarda) uzgarib kolsa, ishchi kismlar kutarilib ketib, tayinlangan ishlov berish chukurligi kamayishining oldi olinadi.


## 2.4. Qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorning sozlanishi

Ishchi kismlarni joylashtirish tartibi ular bajaradigan texnologik jarayonga garab aniklanadi. Kultivator ishchi kismlarini bir yula tugri joylashtirish uchun maxsus shablondan foydalaniladi ( $3$ -rasm). Shablon betonlanib tayyorlangan tekis maydonchada chizilgani ma'kul. Traktor shablon ustiga chikarilib, gryadil va ishchi kismlar rasmida kursatilganidek urnatiladi.

Vertikal tekislikda tishlar xar bir gryadilda aloxida-aloxida urnatiladi. Shu maksadda, gryadil gildirakchasing ostiga galinligi tishlarni tuprogga maksimal botirish chukurligiga teng bulgan taglik kuyiladi. Ishchi kismlarni kerakli chukurlikka urnatishda, gryadil buylama gorizontal xolatda bulishi

lozim. Bunga parallelogrammlı mexanizm ustki tortkisining uzunligini uzgartirish orkali erishiladi. Tishning uchi gildirakcha tegib turgan satxga nisbatan berilgan chukurlikka tushirilib, uning ustuni kulf yordamida maxkamlanadi.

Ishchi kismlari shablon yordamida joylashtirilgan aggregatning ishi dalada tekshirib kuriladi va zarur bulsa, uzgartirishlar kiritiladi.



### 3- rasm. Kultivatorning texnologik sxemasi.


Birinchi katorda yulduzcha yoki disklar urnatiladi. Rotatsion yulduzchalar guza katori ugiga eng yagin masofada (3-5 sm) kuyilib, ximoya zonasini keskin toraytirish imkoniga ega bulinadi. Birinchi kultivatsiyada yulduzcha 3-5 sm, keyingilarida — 5-8 sm chukurlikka urnatiladi.

Tuprogi zinch bulgan erlarni kultivatsiya kilishda rotatsion yulduzchalar urniga sferik disklar ishlatalgani ma'kul, chunki ular utkir tigi bilan zinch erni tilib, ximoya zonasini chegarasini aniglab beradi. Natijada, orgada kelayotgan boshga tish ta'sirida ajratilib olinayotgan katta kesaklar kuchat ildizlari joylashgan tuprokni kuchirmaydi, ildizlarni shikastlantirmaydi. Bundan tashgari, tuprokka botgan diskлarni yon tomonga surish giyin bulganligi sababli, ular zinch tuproglarda gryadilning kundalang yunalishda surilishiga yul kuymasdan, tugri yunalishdan burilmay yurishini ta'minlaydi. Sferik diskлarni kuchatlar katorining ukidigan 6...8 sm masofada (bu ximoya zonasining yarmidir) va 6...8 sm chukurlikda urnatish kerak.

Gryadildagi ikkinchi katorga, disk yoki rotatsion yulduzchadan sung, yassi utoklovchi tishlar kuchat katori ukidan 10 sm koldirib va 6...8 sm chukurlikda urnatiladi.

Uchinchi katorda, utoklovchi tishlardan sung, ukyoysimon tish juyakning urtasida 12..14 sm chukurlikda urnatiladi.

Ugitlash soshnigi eng oxirida, tuprogi yumshatilgan joydagi katorga urnatiladi.



Agar asosiy vazifa tuprokni yumshatish bulsa, kichik yumshatuvchi tishlarning xar birini 4-6 sm chukurlikda juyak profiliga moslab urnatib, ishlov berish maksadga muvofikdir.

Ish kismlarni gryadilda joylashtirishda kuyidagi koidalarga rioya kilish kerak:

1. Ekin gator oraligidagi tuprokka ishlov berib, kul mexnati sarfini kamaytirish maksadida ximoya zonasini kuchatlar ildiziga zarar tegmaydigan kilib, kamaytirishga intilish kerak.
2. Juyak chetida, ya'ni kuchatlarga yakin joylashgan ishchi kism eng sayoz, juyak urtasidagi tish esa eng katta chugurlikka urnatilib, kolganlari esa — juyakning profili (kundalang kesimini shakli) ga moslab, pokonalab joylashtiriladi.
3. Gorizontal yunalishda esa begona ut ildizlarini tulik kesib ketishi uchun utoklovchi va universal (ugyoysimon tishlar) kamrov kengliklari uzaro joylashtiriladi.
4. Xar kanday tishni erga ishlov berish chukurligini tayinlashda maxalliy y tuprok xususiyatlarini e'tiborga olish kerak.

### **3. Metodik qism.**

#### **3.1. Dars rejasi**

1. Dars mavzusi. «Kultivator va uning ishchi qismlari mavzusini keys stadi texnologiyasidan foydalanib o'qitish uslubini ishlab chiqish»

#### **3.2. Darsda tutilgan ta'limiylar va tarbiyaviy maqsadlar**

Qator oralariga ishlov beruvchi kultivator va uning ishchi qismlarini tuzilishi, ishlashi va vazifasi bilan tanishtirish xamda mexanizmlarini joylashishi va ularni nazorat qilishni tushuntirishdan iborat.

Tarbiyaviy maqsadi. KXX larda qator oralariga ishlov beruvchi kultivator va uning ishchi qismlari mavzusini keys stadi texnologiyasidan foydalanib o'qitish uslubini shakllantirish.

Rivojlantirish maqsadi. O'quvchilarni KXX larda qator oralariga ishlov beruvchi kultivator va uning ishchi qismlarini ishlash prinstipi va unga qo'yilgan talablar bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish xamda ushbu mavzuni keys stadi texnologiyasi asosida o'qitishni rivojlantirish.

Darsning turi. Yangi bilimlarni o'rganish

Ajratilgan vaqt 4 soat.

Darsning o'tish joyi. Qishloq xo'jaligi mashinalari xonasi.

Darsning jixozlanishi.

1. Plakatlar: Kultivator va uning ishchi qismlarini tuzilishi.

2. Qator oralariga ishlov beruvchi chopiq kultivatorining tuzilishi sxemasi.

3. Qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorlarni aks ettiruvchi multimedia darsligi

#### **3.3. O'quv natijalari.**

O'quvchilarning o'zlashtirish sifatini baxolashni quyidagi usullari va mezonlari mavjud: xolisona baxolash; bilimni baxolash ishonchliligi; validlik; og'zaki nazorat; yozma nazorat; testlar vositasida bilimlarni nazorat qilishdir.

Xolisona baxo uni o'qitayotgan shaxsga bog'liq bo'lmaydi, u talabalar bilimini davlat ta'lif standartiga muvofiqligini aks ettirishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ayrim bir masalani baxolashda bir necha o'qituvchining yagona bir natijani belgilashidir.

Xolislikni ta'minlash uchun bir necha bosqichlarni o'zaro muvofiqlashtirish zarur. Baxolashni xolisona amalga oshirish, ma'lumotlarni xolisona qayta ishlash, natijalarini xolisona talqin qilish shular jumlasidandir.

Pedagogikada «O'lchash» atamasi yangi bo'lib, bilimni baxolashga o'lchash deb qaraladi, bunda ta'lif natijasi ma'lum bir son bilan belgilanadi.

Baxolashni, ya'ni o'lchashni xolisona o'tkazish xar bir talaba bir xil sharoitda bir xil sinovdan o'tishini talab etadi.

Ma'lumotlarni xolisona qayta ishlash deganda, barcha pedagoglar tomonidan bir xil qo'llaniladigan aniq mezonlar nazarda tutiladi.

Test natijasini komp'yuter vositasida qayta ishlash xolislikni ta'minlaydi, yagona dasturiy ta'minot asosida amalga oshiriladi. Natijalarni xolisona talqin qilishga erishish uchun bir necha pedagog qo'yilgan baxo yuzasidan fikr bildirishi lozim. Kompyuter vositasidagi talqin xolisona bo'lib, aynan bir xil uzviy aloqalar belgilanadi.

Ilmiy pedagogikada xolislikdan tashqari, ya'ni «ishonchlilik» va «validlik» kabi uslubiy me'yorlar xam mavjud./10/

Bilimni baxolash ishonchliligi-pedagog o'lchovining aniqlik darajasidir. Agar qayta sinovlar natijasida aynan bir xil natijalar qayd etilsa, baxolash usuli ishonchli xisoblanadi.

Og'zaki nazoratni afzalligi shundaki, o'qituvchi va talaba orasida jonli muloqot bo'ladi, talaba o'z fikrini og'zaki bayon qilishni o'rganadi, bilimlarni chuqurroq tekshirish maqsadida qo'shimcha savollardan foydalanish mumkin. O'quvchining og'zaki javobga tayyorgarlik ko'rish jarayoni uni faol aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan talaba o'z bilimlarini, aqliy

qobilyatini namoyish eta oladi. Agar o'qituvchida talabaning bilim darajasi borasida ba'zi shubxalar tug'ilsa, qo'shimcha savollar berish orqali uni bartaraf qilish imkonli bor. Shu bilan birga og'zaki nazoratda, ma'lum darajada, o'qituvchi shaxsiyati xam aks etadi. Xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, «ikki pedagog bir-biriga bog'liq bo'limgan xolda, aynan bir o'quvchini ma'lum bir fan soxasi bo'yicha, aynan bir ta'lim maqsidi asosida sinovdan o'tkazganda, baxolar 40-60 foiz xollardagina bir xil bo'ladi». Aynan bir talaba bilimini bitta o'qituvchi yuqori baxolasa, ikkinchisi past baxolagan.

Shunday qilib, og'zaki va yozma sinov natijalari ba'zan sub'ektiv bo'ladi. O'quvchi baxosi, odatda, faqat uning bilim darajasigagina bog'liq emas. O'qituvchi o'z faoliyatida odatda guruxning o'rtacha o'zlashtirish darajasini inobatga oladi, shuning uchun bilim darajasi past bo'lgan sinflarda baxo nisbatan balandroq, bilim darajasi kuchli sinflarda nisbatan pastroq bo'ladi.

Yozma nazorat o'quv materialini o'zlashtirish darajasini xujjatlar asosida aniqlash imkonini beradi, o'quvchilar esa, o'z fikr-muloxazalarini yozma bayon qilish tajribasiga ega bo'ladi. Yozma ishni bajarish jarayoni tafakkurni yuqori darajalarini rivojlantiruvchi kuchli omildir. Ikkita yoki uchta xolis ekspertlar yordamida, aniq mezonlar ma'lum bo'lganda, xolisona baxoga nixoyatda yaqin bo'lgan natijani aniqlash mumkin.

Umuman olganda, bilim saviyasini og'zaki va yozma nazorat qilish etarli darajada texnologik emas, bu usullar o'quv faoliyatidagi eng qiyin va qiziqarsiz usullardandir.

So'ngi yillarda ilmiy pedagogikada xolisona baxolash, og'zaki va yozma nazorat validligini oshirish usullari ishlab chiqilgan. Bilimlarni test vositasida nazorat qilish bu ikki nazorat usuliga nisbatan samaraliroqdir.

O'zbekistonda pedagogik testlar birinchi marta 1992 yilda keng miqyosda qo'llanildi, shu yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Farmoniga muvofiq oliy o'quv yurtlari abituriyentlari uchun test sinovlari o'tkazildi. Keyinchalik talabalar bilim doirasini aniqlashning xolisona usuli bo'lgan pedagogik test sinovlari ta'lim tizimida davlat miqyosida qo'llab-quvvatlandi.

Ammo test sinovlarini umuman kamchiliklardan xoli deb bo'lmaydi. Test sinovlarini ko'pgina shakllari talabani mustaqil ravishda javoblarni tayyorlash tajribasidan maxrum etadi. Bu sinovlarda talabani psixologik faoliyati «erkin shakldagi» javoblaridan farqlanadi, talabaning individual tomonlari, aql zakovati namoyon bo'lmaydi. Bilimi sinalayotgan shaxs faqat to'g'ri javobni tanlaydi xolos.

O'quvchilar bilimini sinash usullarini kamchiligi va afzalliklarini ko'rib chiqib, shunday xulosaga kelindi. Agar test to'g'ri tashkil etilsa, u talabalar bilimini xolisona baxolash imkonini beradi, chunki bu baxo o'qituvchi shaxsiga bog'liq bo'lmaydi. To'g'ri bajarilgan test topshiriqlari ma'lum o'lchov darajasi asosida baxolanadi. Shuning uchun xam test topshiriqlarini aniq va xolisona pedagogik baxolash vositasi deyishadi. Ammo malakali ravishda tuzilgan sifatli, ilmiy talablarga asoslangan testgina ana shunday baxolash imkonini beradi.

O'quvchilar bilimini baxolash uchun , og'zaki savol-javob va yozma ish uchun topshiriqlar:

#### **O'quvchilarni bilimini baxolashda og'zaki so'rovlar uchun topshiriqlar:**

- Kultivator tishining ishlov berish chuqurligi qanday o'zgartiriladi?
- Nima sababdan sirpanib kesishda pichoq tii go'yo o'tkirrioq bo'lgandek seziladi?
- Sirpanib kesishga erishish uchun qanday nadbir ko'rildi?
- Nima maqsadda kombinatsiyalashtirilgan agregatlar bilan tuproqqa sayoz ishlov beriladi?
- Chopiq kultivatori tishlari orasidagi himoya zona nima maqsadda qoldiriladi?
- Chopiq kultivatori tishlarining ishlov berish chuqurligi qanday o'zgartiriladi?
- Qanday maqsadda tirma tishining ko'ndalang kesimiga turli shakl beriladi?
- Qanday maqsadda o'yiq disk bilan ishlov beriladi?
- Tirma tishlarini izlari bir xil oraliqda bo'masa, nimaga ta'sir qiladi.
- Diskning hujum burchagi qanday ahamiyatga ega?
- Qanday vaziyatda ildirak toyib yoki sirpanib yumalanadi?
- ildirak nuqtalarining oniy aylanish markazi qanday joylashgan bo'ladi?
- Qanday sababga ko'ra yirik kesakli erlarda ishlaydigan mashina ildiragini diametri kattaroq qo'yiladi?
- ildirak to'inini eni qanday talabga javob berishi kerak?
- Yonlanma kuch ta'sirida ishlaydigan ildirak to'ini nima bilan farqlanadi?

## **O'quvchilarni bilimini baxolashda yozma ish uchun tayanch so'z va iboralar:**

Qator oralariga ishlov beruvchi chopiq kultivatori, ildirak, chopiq kultivatori, tirma tish, disk, kombinatsiyalangan agregatlar, yonlanma kuch.

### **3.4. Darsning jixozlanishi**

O'qitish usullari deganda, o'qituvchi va o'quvchining orasida bo'ladigan, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, ularni mexnatga, ijodiy ishga bo'lган qiziqishini shakllantirishga qaratilgan birgalikda faoliyatları tushiniladi. «Qishloq xo'jaligi mashinalari» fani mashg'ulotlarida qo'llaniladigan o'qitish uslublarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: tushintirish, so'zlab berish, ma'ruza, suxbat, kitob bilan ishslash, O'rganilayotgan ob'ektlarni va ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish, kino va diafilmlarni ko'rsatish, EXM da fanni elektron darsliklaridan foydalanish, o'quvchilarni mustaqil kuzatishlari, amaliy ishlari va boshqalar. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishda joriy, kuzatish, og'zaki va yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishni kuzatish asosiy xisoblanadi.

O'quvchilarning bilimlarini shakllantirishni og'zaki usulini ko'rib chiqamiz:

1. Xikoya-bunda Qishloq xo'jaligi mashinalarini yaratilish tarixi, uning asoschilarini, Qishloq xo'jaligi mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar usta va xaydovchilar tayyorlashda fanning axamiyati, ilg'or fermer xo'jaliklari tajribalari xaqida so'zlab beriladi. Bunda ko'rgazmali qurollar va detallardan foydalanish lozim.

2.Tushintirish- bunda u yoki bu mavzu yuzasidan nazariy bilimlar beriladi, dalillar asosida ma'lumotlar yoritiladi, tushintiriladi, umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

3. O'quv materialini og'zaki yoritishga bir qator talablar qo'yiladi. Bular material mazmunini xaqiqatligi, dalillarni to'g'riliqi, anglash ketma-ketligi va tizimni yoritish, o'qituvchini so'zlash madaniyati, o'qituvchini diqqatini doimiy raxbarlikka, yangi o'quv materiallarini o'quvchilarga etkazishiga va xayotiy tajribalariga bog'liqligi.

4. Suxbat-o'quvchilarni fan asoslari bilan tanishtirishda, kultivator ishchi qismlariga tushadigan kuchlarni ta'sir etuvchi dinamik omilini xisoblashni o'rgatishda, yangi o'quv materiallarini o'rgatishda va u bilan bog'lashda, o'tilgan materialarni takrorlashda, o'quvchilar bilimini tekshirishda va baxolashda qo'llaniladi. Suxbat davomida o'qituvchi o'quvchilarga savol berib ular bergen javoblarni eshitib boradi, xamda berilgan javob xatolarini to'g'rileydi. Ma'lumotlarni umumlashtiradi va o'quvchilar javoblariga yakun yasaydi. Suxbatni yaxshi o'tishiga o'qituvchi tomonidan tuzilgan savollarni sifati katta ta'sir ko'rsatadi.

«Kultivator va uning ishchi qismlari» mavzusini o'qitishda xar bir o'quvchiga yakka tartibda munosabatda bo'lish tamoyillarini qo'llash xususiyatlari keltiriladi.

Maxsus texnika fanlari bo'yicha darslarga tayyorgarlik ko'rishda didaktik tamoyil talablarini xisobga olish zarur. O'qituvchi o'qitish qonuniyatlarini bilishi emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishi xam muximdir. Bunga o'quv jarayonini tashkil etishda o'qitishning asosiy qoidalariga tayanish kerakligini anglagan taqdirdagina erishish mumkin. Bu qoidalar didaktikada o'qitish tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb ataladi. O'qituvchi o'quvchilarga kultivator va uning ishchi qismlarini tuzilishi, ishlashi va uning qismlari xamda fan va texnika yutuqlari, olimlar va etakchi muxandislarni xizmatlari xaqida ma'lumotlarni berib borishi lozim. Xar bir o'quvchiga yakka tartibda munosabatda bo'lish tamoyili, o'quvchilarni xar tomonlama o'rganishini, ularga o'z vaqtida yordam berishni, ularni tashabbuskorligini va ijodiy qobiliyatini namoyon bo'ladigan sharoit yaratishni talab qiladi. Dars jixozlariga yuqori darajada e'tibor berish kerak. Darsni jixozlashda asosan ko'rgazmali qurollar, maketlar, xamda, Qator oralariga ishlov beruvchi kultivator – oziqlantirgichlar bo'yicha elektron darslik bo'lishi kerak. Ko'rgazmali qurollarda asosan Qator oralariga ishlov beruvchi kultivator - oziqlantirgichlarning qismlari ularni joylashishi berilgan bo'lishi kerak.

### **3.5. Mavzuni o'rganish uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar**

«Kultivator va uning ishchi qismlari» mavzusini dars materiali o'zbek tilida chop etilgan adabiyot mavjud, biroq bu adabiyotda berilgan materiallar aloxida agregatli o'rnatish tizimining qismlarini tuzilishi va ishlashi bo'yicha materiallar berilgan. Shu sababli dasturda keltirilgan mavzuni mazmuni va tarkibidan kelib chiqqan xolda quyidagi adabiyotlardan foydalanish mumkin:

1. M. Shoumarova Qishloq xo'jaligi mashinalari. Darslik. Namangan 2002 y
2. F.M. Mamatov Qishloq xo'jalik mashinalari. Fan nashriyoti. Toshkent 2007 y
3. M. Shoumarova. T. Abdullaev Qishloq xo'jaligi mashinalari. Darslik. O'qituvchi. Toshkent 2009 y
4. A.Nasritdinov Qishloq xo'jaligi mashinalari Ma'ruzalar matni. Namangan 2016y.
5. A.Nasritdinov Qishloq xo'jaligi mashinalari O'quv- uslubiy majmua. Namangan 2016 y
6. A.Nasritdinov Qishloq xo'jaligi mashinalari Ta'lim texnologiyasi. Namangan 2016y.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlarda «Kultivator va uning ishchi qismlarini vazifasi, tuzilishi va ishlashi xamda qismlarini o'zaro joylashishi xaqida ma'lumotlar berilgan. Bu adabiyotdan dars o'tish jarayonida to'la foydalanilsa bo'ladi, biroq bu adabiyotda ushbu mavzuni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, ta'lim texnologiyasi tizimlari xamda o'qitishning yangi o'ziga xos usullari to'g'risida ma'lumotlar berilmagan.

Darsning texnik ta'minotida kultivator va uning ishchi qismlarining plakati va stendidan foydalaniladi.

Ko'rgazmali quroq sifatida mavzuni yoritib beruvchi slaydlardan iborat bo'lган ta'lim texnologiyasidan foydalaniladi.

### **3.6. Mavzuning strukturali-mantiqiy sxemasi**

Bu qismda mavzuning asosiy tushunchalari keltiriladi. Bu tushunchalarni bilib olish uchun bazaviy ma'lumotlarni beruvchi fanlar mavzular bilan bog'liqligi bu tushunchalarni keyin o'qitiladigan fanlar va mavzular uchun axamiyati o'zaro bog'liqlikda yoritiladi. Mavzuda uchraydigan, Kultivator va uning ishchi qismlarini vazifasi va tuzilishi, texnologik ish jarayoni, ishlash prinstipi, ularni chizma shakliga keltirishda standart va texnik o'lchov asoslariga rioya etilishi ularni xarakatlanish qonunlarini o'rganadi. Bu qismlardan foydalanish to'g'risida keyin o'qitiladigan fanlarni axamiyati juda katta bo'lib ular quyidagilardir:

- dexqonchilik va chorvachilik asoslari;
- qishloq xo'jalik mashinalari va chorvachilik jixozlari;
- mashina va jixozlarga texnik xizmat ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligida mexanizastiyalash ishlar texnologiyasi.

O'quvchilar mavzuni o'rganishda birinchi bosqichda kultivator turlari va vazifasi to'g'risida ma'lumot olsalar, ikkinchi bosqichda kultivator va uning ishchi qismlarini tuzilishi , vazifasi xamda ishlashi xaqida to'la ma'lumot oladilar.

### **3.7. Darsning tashkil qilish**

Bu bo'limda darsning tarkibiy qismlari ularning mazmun moxiyati, maqsadi va o'zaro bog'liqligi uchun vaqt taqsimoti jadvali keltiriladi. Yangi materialni o'rganish darsida kultivator va uning ishchi qismlari mavzusiga oid dars rejasini na'muna sifatida keltiramiz.

Dars mavzusi : Kultivator va uning ishchi qismlari.

